

YUSUF XOS HOJIB FALSAFASIDA AXLOQIY TARBIYA MASALALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715711>

Gaybullayeva Shodiyona Toshpulatovna

Alfraganus universiteti

Falsafa mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Pulatov Sherdor Ne'matjonovich

Alfraganus universiteti "Ijtimoiy fanlar kafedrası" mudiri.dotsenti,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning shaxs ma'naviy kamolotida an'analar, qadriyatlar o'ragnilib, bugungi avlod tarbiyasida muhim omil ekanligi tahlil qilingan. Ushbu masalaga Sharqda nafaqat Yusuf Xos Hojib, balki, boshqa olimlar ham e'tibor qaratib kelganlar. Maqolada xalqimizning an'analarini, yashash tarzini, oilaviy axloqiy tarbiya qonun-qoidalarini yaxshi o'rgangan holda, ularni falsafiy jihatdan talqin qilingan.*

Kalim cўzлар: *Kamolot, ma'naviyat, madaniy muhit, falsafiy meros, axloqiy tarbiya, qonun qoidalarga hurmat, qadriyat, an'analar, ma'naviy tarbiya, hokimiyat.*

Abstract. *This article analyzes the fact that Yusuf Khos Hojib's spiritual development is intertwined with traditions and values, which are an important factor in the upbringing of today's generation. This issue was addressed not only by Yusuf Khos Hojib, but also by other scholars in the East. The article, having thoroughly studied the traditions of our people, their customs, family moral upbringing, and laws and regulations, interprets them from a philosophical perspective.*

Keywords: *Maturity, spirituality, cultural environment, philosophical heritage, moral education, respect for the law, values, traditions, spiritual education, authority.*

KIRISH

"Qutadg'u bilig" da Komil inson tarbiyasi asarning asosiy maqsadlaridan biridir. Olim o'z asari orqali ideal insonni o'z zamonidagi jamiyatning meyorlari doirasida, shu bilan birga oddiy insoniy ehtiyojlardan, xohish-istaklardan kechmasdan yashovchi shaxs sifatida tasavvur qilgan. Yusuf Xos Hojib e'tibor qaratgan asosiy axloqiy masalalardan biri shaxs ma'naviy tarbiyasidir. Bunda asosiy o'rinda oila va farzand tarbiyasi turadi. Ushbu masalaga Sharqda nafaqat Yusuf Xos Hojib, balki, boshqa olimlar ham e'tibor qaratib kelganlar. Mutafakkir o'z xalqning an'analarini, yashash tarzini, oilaviy axloqiy tarbiya qonun-qoidalarini yaxshi o'rgangan holda, ularni falsafiy jihatdan talqin qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Olimning asarda keltirishicha, har bir inson o'z jamiyatiga loyiq bo'lib o'sib-unmog'i lozim. Asarda o'quvchilarni jalb etgan jihatlaridan yana biri shuki, unda turli topishmoq va jumboqlarni yechish yo'nalishlaridan ham ustalik bilan foydalanilgan va bu o'z natijasini ko'rsatgan, o'quvchilarning asarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirgan. Bugungi kunda bu muammoli ta'lim deb nomlanadi. "Qutadg'u bilig" asaridagi Kuntug'mish Elig va Oyto'ldi bahsiga e'tibor beraylik. Bu munozarada Yusuf Xos Hojib ushbu Elig Oyto'ldiga joy ko'rsatganda, Oyto'ldi joyga o'tirmagani, "podshoh yonida menga joy bo'lmaydi" - deya so'zlagani, Oyto'ldi koptok ustiga o'tirib olgani, "mol-davlat shu koptok kabidir, bir tekis turmaydi" - deb aytgani, Elig unga qaraganida ko'zlarini yumib olgani – bu davlat ko'r inson misolidir. Bu bilan muallif kimda-kim unga bog'lansa, qattiq o'rganib qolishini tushuntiradi. Yuzlarini berkitib olgani esa, mol-dunyoga, davlatga ishonma, u jafo keltiradi, deganidir.

Muhokama va natijalar. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari nomi ham asarning tub mazmunini ko'rsatib turibdi. Asar nomining turlicha tarjimalariga qaramasdan, ulardan kelib chiqadigan ma'no umumiy bo'lib, qutli bilim, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim degan ma'nolarni anglatadi. Bilim baxt-saodat, tinchlik va farovonlikning kaliti ekani asarda bot-bot takrorlanadi. Zero, "Bilimning jamiyat hayotidagi rolga nafaqat pragmatik nuqtayi nazardan, balki ekzistensialistik tomondan ham qarash lozim" [1. 33-b]. Bilim kishilar uchun o'zining mavjudligini namoyon etishning asosiy shakli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. "Shu sababli Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidagi bilim fenomeni bilan bog'liq unikal qarashlar xalqaro tashkilotlarning e'tiboridan tushmaydi. YUNESKO tomonidan 2019-yil "Qutadg'u bilig" – "Saodatga eltuvchi bilim" yili deb e'lon qilingani ham yuqoridagi fikrlarimizning dalilidir" [2. 15-b.]

Yusuf Xos Hojib qarashlarining eng muhim jihati uning bilimga nisbatan pragmatik yondashuvidir. Ya'ni u bilimli inson o'z o'rganganlarini insoniyat farovonligi yo'lida xizmat qildirishi kerak, degan fikrga qat'iy ishonadi.

"Bekka maslahatgo'y bo'lsang yonma-yon,

Halol yo'l ko'rsatgin yanglishgani on"[3. 266-b].

Allomaning fikricha, bilim hukmdorning xohish-istagidan muhim va yuqoridir. Garchi hokimiyatning ilohiyligi haqidagi qarashlarga monand fikrlasada, Yusuf Xos Hojib hukmdor bilimdon maslahatgo'yning yo'l-yo'riqlariga muhtoj ekanini uqtirib o'tadi. Chunki bilimsizlikning o'rnini na hokimiyat, na boylik to'ldira oladi. Bilimgina insonni hayotdagi barcha qiyinchilik va muammolardan xalos etishga yordam berishi mumkin.

"Ziyoda maslahat bilan bilim bot,

Bilim, kengash bilan zabardast har zot" [3.566-b].

Inson tomonidan egallangan bilimlarning hayotga tatbiq etilishi – moddiylashuvi saroy muhitida maslahatlar orqali namoyon bo'ladi. Bilim insonni bir pog'ona yuqoriga ko'tarsa, dono kishining maslahati uni yana bir pog'onaga ko'taradigan omillardandir. Shu bilan birga alloma: "Asar g'oyasida nihoyatda noziklik bilan qarg'ish yomon, qarg'ish olishdan qochish, undan uzoq bo'lish

kerakligini ta'kidlamoqda. Yana boshqa tomondan qaralsa, davlat amaldori, hukmdor xalq oldidagi o'z burchini bajarmasa, qilinishi kerak bo'lgan yaxshi ishlarni qilmasa xalq tomonidan badduo qilinishiga ishora qilingan" [4. 127-b].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Yusuf Xos Hojib davlat va jamiyat boshqaruvida olimning o'rnini yetakchi maqomda ekanini, hukmdorni adolatga, ma'rifatga va diyonatga chorlab turadigan zotlar ichida bilimli, ma'rifatli kishilar bo'lishi kerakligini uqtirgani, shu sababli asarda Oyto'ldining uzoq safardan saroyga kelib vazir, maslahatchi bo'lishini qayd etib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Demak bilimli inson jamiyat taraqqiyotiga mas'uldir va bu yo'lda hukmdorlar bilan hammaslak bo'lishi zarur.

"Qutadg'u bilig" asaridagi ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri – bilimsizlikning shaxs kamolotida salbiy oqibatlarini muammosi sifatida qaraladi. Yusuf Xos Hojib tangriga bilimsiz qilingan ibodat azob-uqubat ekanligini ta'kidlaydi. Bilimsizlikni tugatish dialektik xususiyatga ega bo'lib, bir tomonda o'rgatuvchi, ikkinchi tomonda o'rganuvchidir.

"Kechar hayvon kabi g'ofillar kuni,

Tilasang uni de, tilasang buni" [5. 317-b].

Yusuf Xos Hojibning bilimsizlikka va uning oqibatida kelib chiqadigan jaholatga munosabati ancha qat'iy tus olib, bunday insonlarni hayvonga o'xshatadi. Bilimsiz inson kasali bor bemor kabi, bu hayotni ma'nosini anglab, yashashdan maqsadini bilishi uchun ilm o'rganishi zarur. Aks holda, bunday jaholat insonni ma'naviy va jismoniy jihatdan o'ldiradi:

"Yur, ey biligsiz, iginni ota,

Biligsiz otin sen e bilge quta" [6. 84-b].

Yusuf Xos Hojibning ushbu baytlari butun insoniyatga murojaatga o'xshaydi. Barchani bilim olishga chorlab, ilm orqali tubanlikdan, baxtsizlik va qayg'u-g'amdand xalos bo'lishga chaqiradi. Aytish lozimki, ma'rifat va jaholat dialektikasini faqatgina Yusuf Xos Hojib she'riyatida emas, shuningdek, o'sha davrdagi boshqa bir qancha ijodkorlarning ma'naviy merosida ham uchratish mumkin.

Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq" asarida yozadi:

"Biliktin ayurman so'zumga ula,

Biliklikka yo do'st o'zungni ula.

Bilik birla bilinur saodat yo'li,

Bilik bil saodat yo'lini bu" [7-37-b].

Ushbu misralar orqali shoir bilimli kishilar bilan yaqin bo'lish, ularni o'ziga do'st tutish va bilim orqali saodat yo'li ochilib, manzilga yetish haqida yozib o'tgan.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojibning falsafiy merosidan unumli foydalanish istiqbollari mavjud. Asardagi sodda va tushunarli so'zlar aholining aksariyat qatlamlarini bilim va ma'rifatga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishi mumkin.

“Qutadg‘u bilig” asarida islom dini aqidalariga rioya etishga doir juda ko‘plab fikrlar bo‘lib, ularning hammasi ham insoniy kamolotga intilish, boshqalarning muammolariga befarq bo‘lmaslik haqidadir. “Aslida ham, turkiy-buddaviy, turkiy-manixeylik, turkiy-nasoro, ba’zi yahudiylik ta’sirlari umuminsoniy yaqinlik, aloqa, munosabatlarning namoyishi bo‘libgina qolmay, XI asr odami, o‘zining asl turkiy dunyoqarashi, so‘zlari, amallarida o‘ta mas’uliyatli shaxs bo‘lgan Yusuf Xos Hojib uchun mazkur an’ana, qadriyatlar “yaqin ming yillardagi o‘z xalqi (turklar) uchun muqaddas, aziz sanalgan” [8. 46-b].

Ma’lumki, ijtimoiy stratifikatsiya konsepsiyasi XX asrga kelib ishlab chiqilgan bo‘lib, bir xil ijtimoiy maqomga ega qatlam, guruh va sinflarni birlashtirish natijasida yuzga kelgan va o‘zida ijtimoiy notenglikning barcha ko‘rinishlarini namoyon etadi [9. 373-b]. Ushbu konsepsiyaning ishlab chiqilishi bilan davlat va jamiyat institutlarining samarali faoliyatiga baho berish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ma’lum bir ijtimoiy qatlamga mansub shaxs ana shunday institutlarning sharofati bilan nisbatan yuqoriroq qatlamga ko‘tarilishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Mazkur holat ilmiy sohada jamiyat mobilligi bilan izohlanadi. Buning bosh g‘oyasi jamiyat rivojlanishiga xizmat qiladigan omillarning mazmunini anglashga ko‘maklashishdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojibning bundan ming yil avval ishlab chiqqan ijtimoiy qatlamlar haqidagi qarashlari o‘z davri uchun g‘oyatda pragmatik xususiyatga ega bo‘lgan edi.

“Qutadg‘u bilig” asarining 51-bobi dono olimlar bilan muloqot masalalariga bag‘ishlangan. Olimlar el-yurt yo‘lini yoritadigan mash’aldir, deydi alloma. Umrining so‘ngi kuniga qadar olimlarni e’zozlashing kerak, deb uqtiradi. Bu kabi qarashga sabab ham diniy, ham dunyoviy ilmlarning jamiyat rivojidagi ahamiyatini to‘liq tushunib yetish, shu bilan birgalikda, hukmron elitaning ham ilm ahliga ijobiy munosabati shakllanib bo‘lganligidandir. Yana “olimlar haqiqatning qo‘riqchisi, shariatning esa ustunidir”, - degan juda original ta’rifni ishlatadi. Bu orqali ilm ahli tomonidan bayon qilingan fikrlar aksariyat hollarda ma’lum bir qonuniyatlarga bo‘ysunib aytilgan, xulosalar esa mantiqiy jihatdan asoslanganiga e’tibor qaratiladi. “U bilimni buyuk, o‘quvni ulug‘ deb ta’riflaydi. Zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi, deb ilmi kishilarni asl toifadagi kishilarga qo‘shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini aytadi” [10. 173-b].

Davlatimizning mustaqil va suveren taraqqiyot asri boshlanishi bilan insoniyat o‘z tarixining o‘tgan ming yilliklarida to‘plagan ijtimoiy-tarixiy jarayonlar va fenomenal tarixiy bilimlarni obyektiv tahlil qilish orqali yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Bugungi kunda mamlakatimizda barkamol va intellektual rivojlangan avlodni shaxs sifatida tarbiyalash faqat global ijtimoiy-tarixiy jarayonlar haqidagi bilimlar yo‘nalishini to‘g‘ri bayon etish orqali amalga oshirilishi barchaga ayon. Shu bilan birga, yoshlarning ongi va tafakkurida buyuk ajdodlarimiz o‘z asarlarida ezgu niyat va orzu bilan yozgan yorqin kelajak va olijanob jamiyat haqidagi buyuk orzu-niyatlarni va ularning amalga oshirishini ko‘rsatish – davlatimizning Uchinchi

Uygʻonish davri yangi tarixiy tafakkurini shakllantirish pallasida oʻta dolzarb masalaga aylandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek, “Tarixiy merosni asrab-avaylash, oʻrganish va avloddan avlodga yetkazish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yoʻnalishlaridan biridir” [10. 3-b], chunki oʻtmish shu qadar boy tarixiy tajribaning manbai boʻlib, odamlar uni doimo oʻrganadi, oʻzlashtiradi va undan ilhomlanadi.

Xulosa. Yusuf Xos Hojibning shaxs maʼnaviy kamoloti haqidagi qarashlariga doir quyidagi xulosalar mavjud:

Birinchidan, alloma bilimni insoniyat taraqqiyotining katalizatori deb hisoblaydi. Bilimsiz insonning ibodati ham azob-uqubatdir, degan gʻoyani ilgari suradi. Shoir bilim bilangina inson baxt topishi mumkinligini asar nomidagi “baxtga erishtiruvchi bilim” nomi bilan taʼkidlab oʻtadi. Yusuf Xos Hojib ijodiy merosidagi bilimga targʻib qilish, avvalambor, hukmron elita vakillarining davlatni idora qilishdagi maʼrifatiga qaratilgan boʻlsa, shuningdek, jamiyat aʼzolarining barchasi ham maʼrifatli boʻlishi kerak degan xulosaga olib keladi.

Ikkinchidan, Yusuf Xos Hojib har bir maʼrifatli inson toʻplagan bilimni jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashi kerak, bu yoʻlda hukmdorlar bilan yaqin aloqada boʻlish zarurligiga doir oʻziga xos qarashlarini bayon etgan. Yusuf Xos Hojib oʻzining hayot yoʻli misolida ham ushbu tamoyilga sodiq qolganini koʻrsatib oʻtgan.

Uchinchidan, alloma ijodida ilohiy mavzularga doir qator misralar boʻlib, ularda islom dinining ahkomlaridan kelib chiqib hayot kechirishga chaqiriqlar bor. Shu bilan birgalikda shoir inson oʻz hayotini yaxshilash uchun masʼul ekani, bu yoʻlda bilim va axloq uning yoʻldoshi ekani haqidagi gʻoyaga qatʼiy ishonishini taʼkidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar roʻyxati

1. Baklanov I.S., Baklanova O.A., Avdeyev Ye.A. Znaniye v sovremennyye sotsialnykh prosesakh: pragmaticheskiy i ekzistentsialnyy aspekt // Sovremennyye problemy nauki i obrazovaniya. – 2014. – № 3.
2. Turkiy xalqlarning bobokalon shoiri va mutafakkiri. <https://uza.uz/> 03-10-2019
3. Qutadgʻu bilig: (Bilim saodati) / Yusuf Xos Hojib, Abduhamid Pardayev tabdili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Aripov M. “Qutadgʻu bilig”dagi lingvomadaniy birliklar / Madaliyeva Ya. va boshq. “Qutadgʻu bilig”ning badiiy tili / “Jahon turkologiyasining buyuk obidasi “Qutadgʻu bilig” va uni oʻrganishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya toʻplami. – Toshkent, 2020.
5. Qutadgʻu bilig: (Bilim saodati) / Yusuf Xos Hojib, Abduhamid Pardayev tabdili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
6. Yusuf Xos Hojib. “Qutadgʻu bilig” (Saodatga yoʻllovchi bilim). Transkripsiya va hozirgi oʻzbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov. – Toshkent: Fan, 1971.

7. Пўлатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАҲДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
8. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
9. Po‘Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
10. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN‘ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.
11. Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA‘NAVIY KAMOLAT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
12. Uralov, D. (2024). JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA SOG‘LOM MAFKURALARNING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 222-228.
13. Uralov, D. (2021). TALABA-YOSHLAR ONGIDA MA‘NAVIY BO‘SHLIQNI TO‘LDIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 962-966.
14. Ahmad Yugnakiy. “Hibat ul haqoyiq”. Nashrga tayyorlovchi Qozoqboy Mahmudov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971.
15. B.To‘xliyev. Yusuf Xos Hojib falsafasi // Muloqot. 1994. – № 1-2. – B. 46-51; Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo‘jayev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. – Toshkent: Yozuvchi, 2000.